



TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUVINI OSHIRISHNING ICHKI MANBALARI: FOYDANI KAPITALLASHTIRISH VA DIVIDEND SIYOSATI

Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Fazilatfazilat92@gmail.com


Annotatsiya. Tezisdagi tijorat banklari kapitallashuvining ichki manbalari - taqsimlanmagan foydani kapitallashtirish va dividend siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tadqiq etilgan. O'zbekiston bank tizimining 2025–2026-yillardagi moliyaviy natijalari asosida ichki manbalarning real salohiyati baholangan, dividend siyosati turlarining kapitallashuvga ta'siri tizimlashtirilgan va uni kapitallashuv maqsadlariga bo'ysundirish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: bank kapitali, kapitallashuv, taqsimlanmagan foyda, dividend siyosati, rentabellik, kapital monandligi.

Tijorat bankining barqaror rivojlanishi, eng avvalo, uning kapital bazasining mustahkamligiga tayanadi. Kapitalni ko'paytirish manbalari an'anaviy tarzda ichki va tashqi manbalarga ajratiladi. Tashqi manbalar yirik hajmdagi resurslarni bir vaqtning o'zida jalb etish imkonini bersa-da, murakkab tayyorgarlikni, bozor kon'yunkturasining qulayligini va ko'p hollarda mulkdorlar tarkibining o'zgarishini taqozo etadi. Ichki manba -taqsimlanmagan foydani kapitallashtirish esa har qanday bank uchun doimiy ochiq bo'lgan, eng arzon va mulkdorlar ulushini suyultirmaydigan yo'l hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotda foydani kapitallashtirish kapital o'sishining eng barqaror manbai sifatida e'tirof etiladi: O.Lavrushin ta'kidlaganidek, ushbu manbaning asosiy cheklovi uning sur'ati -bank kapitalni foyda hajmidan tez o'stira olmaydi¹. Shu bois ichki manbaning salohiyati bevosita bank tizimining rentabelligi va aktivlar o'sishining sur'atlari nisbati bilan belgilanadi. Aktivlarning joriy dinamikasi 1-rasmda keltirilgan.

¹ Lavrushin O.I. (red.) Bankovskoye delo: uchebnik. – M.: KNORUS, 2016. – 800 s.



1-rasm. O'zbekiston bank tizimi jami aktivlarining dinamikasi, trln so'mda²

Rasmdan ko'rinib turibdiki, jami aktivlar atigi olti oy ichida 866,8 trln so'mdan 932,3 trln so'mga, ya'ni 7,6 foizga o'sdi. Ayni paytda 2025-yil yakunlari bo'yicha bank tizimi 13,5 trln so'm sof foyda oldi va bu ko'rsatkich bir yil avvalgiga nisbatan 57,1 foizga o'sdi, muammoli kreditlar ulushi esa 3,3 foizgacha pasaydi³. Umumiy kapital 2025-yil 1-oktabr holatiga 130,4 trln so'mni tashkil etib, yillik hisobda 13,6 foizga o'sdi⁴. Ushbu raqamlarning qiyosi muhim xulosaga olib keladi: rentabellikning tarixiy yuqori darajasi ichki manba hisobiga kapitallashtirish uchun noyob imkoniyat yaratdi, biroq bu imkoniyatning ro'yobga chiqishi foydaning qay darajada kapitalga yo'naltirilishiga bog'liq.

Aynan shu nuqtada dividend siyosati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: dividendlarga yo'naltiriladigan foyda ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, kapitallashtiriladigan qism shunchalik kam qoladi. Bu yerda aksiyadorlarning qisqa muddatli daromad olish manfaati bilan bankning uzoq muddatli o'sish manfaati o'rtasida obyektiv ziddiyat mavjud. Dividend siyosatining asosiy turlari va ularning kapitallashtirishga ta'siri 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval

Dividend siyosati turlarining bank kapitallashtirishga ta'siri⁵

Dividend siyosati turi	Mazmuni	Kapitallashtirishga ta'siri
Konservativ	Foydaning ustuvor qismi kapitalga yo'naltiriladi, dividendlar minimal darajada to'lanadi	Kapital eng yuqori sur'atda o'sadi; jadal o'sish bosqichidagi banklar uchun maqbul

² Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan Excel dasturida tuzildi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining "Banklar faollik indeksi" reytingi ma'lumotlari (2025-yil IV chorak va 2026-yil I chorak yakunlari) // <https://cerr.uz>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida // www.cbu.uz

⁵ Manba: ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mo'tadil	Foyda kapitallashtirish va dividendlar o'rtasida barqaror nisbatda taqsimlanadi	Kapitalning bashorat qilinadigan o'sishi; investorlar uchun jozibadorlik saqlanadi
Agressiv	Foydaning asosiy qismi dividend sifatida to'lanadi	Ichki manba salohiyati cheklanadi; kapital o'sishi tashqi manbalarga bog'liq bo'lib qoladi

Davlat ulushidagi banklarda mazkur tanlov yanada murakkab tus oladi: davlat aksiyador sifatida byudjet daromadlaridan manfaatdor bo'lsa, tartibga soluvchi sifatida bank tizimining kapitallashuvidan manfaatdordir. E'tiborga molik jihati shundaki, amaldagi tartibga solish tizimi ushbu muvozanatni ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratib bergan: 2026-yildan kuchga kirgan kapital monandligi to'g'risidagi yangi nizomga muvofiq, bank kengashi foydadan kapitalni oshirishga yo'naltiriladigan ajratmalar miqdorini e'tiborga olishi lozim, prudensial normativlar buzilishiga olib keladigan hollarda esa dividend to'lash cheklanadi⁶.

Davlat siyosati darajasida ham urg'u aynan shu yo'nalishga qaratilgan: 2023-yil 20-noyabrdagi yig'ilishda davlat tomonidan banklarni kapitallashtirishga 4,5 mlrd AQSH dollaridan ortiq mablag' yo'naltirilgani, biroq endilikda banklar bozor tamoyillari asosida, o'z daromadi hisobiga rivojlanishi zarurligi qat'iy qayd etildi⁷. Bu davlat mablag'lari hisobiga kapitallashtirish bosqichi yakunlanib, foydani kapitallashtirish davri boshlanganini anglatadi.

Fikrimizcha, ichki manbalar salohiyatini to'liq ishga solish uchun quyidagilar maqsadga muvofiq. Birinchidan, davlat ulushidagi banklarda dividend siyosatining ko'p yillik deklaratsiyasini qabul qilish va unda kapital monandligi maqsadli darajasiga erishilgunga qadar konservativ yondashuv tamoyilini mustahkamlash lozim. Ikkinchidan, reinvestitsiya qilinadigan foyda uchun rag'batlantiruvchi soliq mexanizmlarini ko'rib chiqish o'rinli. Uchinchidan, har bir bankda kapital rejasini yillik stress-test natijalari bilan bog'lash hamda dividend to'g'risidagi qarorni ushbu reja ijrosiga bo'ysundirish tartibini joriy etish zarur.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bank tizimida rentabellikning rekord darajaga chiqqani sharoitida kapitallashuvning ichki manbalari real kuchga aylandi. Ushbu imkoniyatdan foydalanish darajasi ko'p jihatdan aksiyadorlar, birinchi navbatda davlatning dividend siyosatida uzoq muddatli yondashuvni tanlashiga bog'liq bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4811025>

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklar kapitalining monandligiga

⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom" (ro'yxat raqami 3697, 28.10.2025-y., 2026-yil 1-yanvardan kuchda) // <https://lex.uz>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2023-yil 20-noyabrda o'tkazilgan bank tizimida transformatsiya va xususiy lashtirish jarayonlari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish materiallari // <https://president.uz>

qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom" (ro'yxat raqami 3697, 28.10.2025-y.) // <https://lex.uz>

3. Lavrushin O.I. (red.) Bankovskoye delo: uchebnik. – M.: KNORUS, 2016. – 800 s.

4. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2017.

5. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining "Banklar faollik indeksi" choraklik reytingi materiallari // <https://cerr.uz>

6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti // www.cbu.uz